

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI**

**10.00.04 – “YEVROPA, AMERIKA VA AVSTRALIYA XALQLARI TILI VA
ADABIYOTI” IXTISOSLIGI BO‘YICHA MUSTAQIL IZLANUVCHILIKKA
(PhD) KIRISH UCHUN IMTIHON
DASTURI**

Andijon – 2026

KIRISH

Mustaqil yurtimiz tarixiy taraqqiyotida raqobatbardosh kadrlarning oʻrni va ahamiyati katta. Bu borada respublikamiz siyosiy va iqtisodiy, maʼnaviy-maʼrifiy ravnaqida chet tillarni mukammal bilish bugungi kunning ustuvor vazifasiga aylandi. Shu bois, chet tillarni oʻrganish va oʻrgatishda ilgʻor texnologiyalardan foydalanish zaruriyati paydo boʻldi. Mamlakatimiz ravnaqi, taʼlim sohasi taraqqiyoti va chet tillarni oʻrganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarorini amalga oshirishda boshqa fanlar bilan bir qatorda tili oʻrganilayotgan mamlakatlar adabiyotini oʻrganuvchi fanlarning ham oʻz maqsadi va vazifalari bor. Zotan, til oʻsha millat tarixi bilan bogʻliq boʻlsa, adabiyot millat, elat va xalqlarning koʻzgusidirki, uni oʻrganish orqali ana shu xalqlarning ham iqtisodiy, ham ijtimoiy-siyosiy hayoti haqidagi bilimlarga ega boʻlish mumkin. Shunday ekan, yurtimiz iqtisodining gullab yashnashida mazkur sohaning alohida oʻrni bor.

Yuqori malakali ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlashda mustaqil izlanuvchilar uchun dastur tuzish hozirgi kundagi taʼlim yoʻnalishining dolzarb masalalaridan biridir. Ushbu ixtisoslik doirasida hozirgi kunda Yevropa, Amerika va Avstraliyada muloqot vositasi boʻlib xizmat qiladigan tillarning kelib chiqishi, til va adabiyot normasi shakllanishini asosiy bosqichlari, unda ichki va tashqi omillarning roli va ahamiyati, adabiy tillar normasining shakllanishiga tasir koʻrsatuvchi ekstralingvistik va intralingvistik omillar, bu tillar funksional va tipologik jihatlaridagi milliy oʻziga xosligi kabi masalalar muhokama qilinadi.

Ushbu dastur 10.00.04 – “Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi boʻyicha mustaqil izlanuvchilikka (PhD) kiruvchilar uchun moʻljallangan boʻlib, Davlat taʼlim standartlari talablari asosida tuzilgan.

Dastur Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash jarayonlarining shaffofligini taʼminlash va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 696-son hamda 2021-yil 24-sentabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy taʼlimni olish tartibi toʻgʻrisida”gi Nizomni tasdiqlash haqidagi 606-son qarorlariga muvofiq ishlab chiqildi.

TALABGORLAR BILIMLARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

- talabgorlar hozirgi kunda Yevropa, Amerika va Avstraliyada muloqot vositasi bo'lib xizmat qiladigan tillarning kelib chiqishi, til va adabiyot normasi shakllanishini asosiy bosqichlari, unda ichki va tashqi omillarning roli va ahamiyati haqida fikrga ega bo'lib, o'z qarashlarini ifodalay olishi lozim;

- qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'shtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi filologik komparativistika, lingvistik komparativistika, adabiyotshunoslik komparativistikasi hamda tarjima nazariyasi va amaliyoti masalalarini bilan aloqasi borasida tasavvurga ega bo'lishi;

- Hind-Yevropa tilini o'rganish va rekonstruksiya qilish masalalari, slavyan, german va roman tillarining kelib chiqishidagi umumiy holatlar, qarindosh tillarini qiyosiy- tarixiy o'rganish asosiy prinsiplarni, tillar taraqqiyotidagi jarayonlarini tahlil qilabilishi;

- tarixiy taraqqiyot jarayonida adabiy an'analarni shakllanish bosqichlarini bilisi;

- Yevropa, Amerika va Avstraliya adabiyoti tarixi, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, tipologik tilshunoslik, kontrastiv tilshunoslik masalalarini bilishi;

- hozirda Yevropa, Amerika va Avstraliya adabiyoti tarixi masalalari yuzasidan bir qator olib borilgan ilmiy izlanishlar va mazkur sohalarga doir tadqiqotlar bo'yicha habardor bo'lishi;

- yangi ilmiy adabiyotlar, darsliklarning elektron ko'rinishlari va ARM kataloglaridan foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur.

Mazmun-mohiyatiga ko'ra mazkur dastur ikki qismni o'z ichiga oladi: birinchisi - Yevropa, Amerika va Avstraliya halqlari tillarigagi lingvistik tushunchalar va xususiyatlar – tilshunoslik masalalarining o'rganilishiga bag'ishlangan qism bo'lsa, ikkinchi qism Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari adabiyotiga bag'ishlangandir.

1-QISM. YEVROPA, AMERIKA VA AVSTRALIYA XALQLARI

TILLARI VA TILSHUNOSLIK MASALALARI

Dunyo tillarini tavsiflash va tasniflash tamoyillari. Tillarning genetik tasnifi tamoyillari. Jahon va mintaqa tillari. Til oilalari. Tipologik tasniflar va ularning asosiy parametrlari. Analitik va sintetik tillar. Fleksion va aglutinativ tillar. Yozuv tizimlari. Yozma yodgorliklar tili tilshunoslik ob'ekti sifatida. Tilshunoslik an'analari. Tilning universal xususiyatlarini aks ettirish va tipologik an'anaviy tillarning xususiyatlari. Til tizim sifatida. Til birliklarining turlari. Qiyosiy tarixiy tilshunoslik. Etimologiya qiyosiy tarixiy tadqiqot bosqichlaridan biri sifatida. Lingvistik qarindoshlik tushunchasi. Tovush o'zgarishlarining sabablari haqida farazlar. Fonetika va fonologiya muammolari.

An'anaviy va sistemaviy tilshunoslik munosabati masalalari. O'rganilayotgan tillarning fonetikasi, fonologiyasi va morfologiyasi. Fonologiyaning predmeti va vayazifalari. Til birliklarini fonologik jihatdan tahlil qilishning asosiy tamoyillari. Fonologik belgi tushunchasi. Fonema. Segmentatsiya. Klassifikatsiya. Fonema va uning realizatsiyasi, pozitsiyaning turlari. Nutqning fonetik bo'linishi. Fonetik jarayonlar. Pozitsion o'zgarishlar. Urg'u. Reduksiya. Akkomodatsiya. Assimilyatsiya.

O'rganilayotgan tillar morfologiyasi. Grammatikaning predmeti haqida. Grammatik shakl. Grammatik ma'no. So'zning sintektik shakli, soozning analitik shakli. Supletivizm. Ichki fleksiya. Reduplikatsiya. Yordamchi so'zlar. Gapda so'z tartibi. So'z turkumlari. Sool yasash muammolari. Derivatologiya. Affiksatsiya. Prefiksatsiya. Suffiksatsiya. Qo'shma so'zlar. Abbrevatsiya. Konversiya. So'z yasashning sermahsul va kammahsul turlari. Sintaktis. Sintaksisning predmeti. Sintagmatik munosabatlarning mantiqiy tahlili. Sintagmatik manolar va ularni ifoda qilish usullari. Sintagmatik ko'rsatkichlarning shakliy funksiyalari. Gapning normativ jihati propozitiv nanimatsiya va denotatring strukturasi. Gapning sintagmatik jihatdan tashkillashtirishning ikki vazifasi: voqeani nomlash va kommunikativ niyatni ifodalash. So'zlar orasidagi sintaktik aloqaning turlari: predikativ, obyektiv, atributiv va adverbial aloqa. Gap va gapning shakliga ko'ra turlari. Gapning kommunikatsiya maqsadiga ko'ra turlari. Gapning semantikasiga ko'ra turlari. Gapning pragmatik

klassifikatsiyasi. kognitiv grammatikada gapni tahlil qilishning asosiy tushuncha va tamoyillari. O'rganilayotgan tillarda semantika masalasi. semantikaning tilshunoslikdagi o'rni. Ma'no, tushuncha va konsept terminlari o'rtasidagi munosabatlar. Belgi va ma'no.

Ifoda vositalari va stilistik uslublar. Tilning funksional uslubi tushunchasi. Tillarning funksional stillari. Leksikologiya va leksikografiya. Til lug'at tarkibining etimologik guruhlarni. So'z strukturasi. Morfemik tahlilning prinsiplari. Derivatsion tahlil prinsiplari. O'zak, negiz va ularning turlari. Leksikografiyaning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. Lugoat turlari. Lug'at tizimining asosiy prinsiplari. Parimiologiya.

An'anaviy yo'nalishlar. Yangi yo'nalishlar. So'z yasaliishi muammolari. Morfemika muammolari. Leksikologiya muammolari. Lingvistikada maydon nazariyasi. Morfologiya. So'z turkumlari talqini. Mustaqil so'zlar. Yordamchi so'zlar talqini. Sintaksis. Yangi qarashlar. Gap bo'laklari talqini. Binar va trenar tamoyillar. Mazmuniy sintaksis. Lingvistik ta'limotlar tarixi. Struktur tilshunoslikning asoslari va yo'nalishlari. Lingvistik nisbiylik nazariyasi. Jahon tilshunosligidagi yangi yo'nalishlar. Ilmiy tilshunosligining rivojlanishi.

Lingvokulturologiya

Til, madaniyat va inson. Tilshunoslikda "paradigma" tushunchasi. Tilshunoslikda paradigmalarning o'zgarishi masalasi. paradigmalarning qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur va antropotsentrik turlari. Bilimlarning yangi antropotsentrik paradigmasi va uning lingvokulturologiyadagi o'rni. Lingvokulturologiyaning boshqa fanlar orasidagi maqomi. Lingvokulturologiyaning etnolingvistika, sotsiolingvistika va etnopsixolingvistika bilan chambarchas bog'liqligi.

Madaniyat va uning o'rganilishi. Lingvokulturologiya tarixi va nazariy asoslari. Lingvokulturologiyaning tadqiqot obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari. Lingvokulturologiya metodologiyasi va metodlari. Lingvokulturologiyaning asosiy tushunchaviy-terminologik apparati. Til va madaniyat. Til va madaniyatning o'zaro aloqasi. Fanda "til-madaniyat" masalasining o'rganilishi: V. fon Gumboldtning "til-

madaniyat” haqidagi lingvistik ta’limoti. E. Sepir, B. Uorf, K. Fossler, F. de Sossyurlarning til va madaniyatning o‘zaro aloqadorligi xususidagi qarashlari. Madaniyat haqidagi tasavvurlarning tilda namoyon bo‘lish usullari. Olamning lisoniy manzarasi. Olamning konseptual manzarasi. “Geshtalt” tushunchasi.

Lingvomadaniy birliklarning tahlili. Metafora – madaniyatning ko‘rsatkichi. Madaniy makondagi ramz va stereotip hodisalari. Lingvomadaniyatda lakuna muoammosi. Paremalarning lingvomadaniy jihatlari. Insonning til va madaniyatdagi o‘rni. Inson – milliy mentallik va til egasi. Til kommunikatsiya va fikrlarni ifodalash vositasi. Insonning adabiy janrlarda tadqiqotning asosiy obyekti ekanligi. Turli millat vakillarining o‘ziga xos avtoportreti. Til inson shaxsini aniqlashda muhim vositalardan biri. Lisoniy shaxs. Lisoniy shaxsni shakllantiruvchi omillar. Y.N.Karaulovning lisoniy shaxs haqidagi qarashlari. Lisoniy shaxs mohiyatining tarkibiy qismlari: qadriyat, madaniyat, individuallik. Erkak va ayolning jamiyat, madaniyat hamda tildagi o‘rni. Madaniyatda “erkak – ayol” ziddiyati. Ayol va erkak ramzlari. Madaniyat va tildagi gender kategoriyasi. Ayol va erkaklar nutqining ijtimoiy tabiati va o‘ziga xos xususiyatlari. Mif, folklor va tilda inson obrazi.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar rooxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent. "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 29 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi. “O'zbekiston” NMIU, 2017. - 47 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijariob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 47 b.
4. Абдуазизов А.А. Тилшуносликка кириш назарияси. — Т.: Шарқ, 2010. — 262 б.
5. Арнольд И.В. Современные лингвистические теории взаимодействия и среды // Вопросы языкознания. — 1991. — №3. — С. 118-126.
6. Бодуэн де Куртенэ И.А. Языкознание или лингвистика 19 века // Избранные труды по общему языкознанию. В 2-х т. — М., 1963. — Т. 2.
7. Бок Ф.К. Структура общества и структура языка. Новое в лингвистике. Выпуск VII. Социолингвистика. Изд. — М.: Прогресс, 1975. — 1706 с.
8. Ван Дейк Т.А. Контекст и познание. Фреймы знаний и понимание речевых актов // Язык. Познание. Коммуникация. — М.: Прогресс, 1989. — С. 12-41.

9. Гумбольдт В. фон. О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человечества // Избранные труды по языкознанию. – М., 1984. – С. 36-298.
10. Гумбольдт В. Язык и философия культуры. – Москва: «Прогресс», 1985. – 452с.
11. Гумбольдт Вильгельм фон. О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человеческого рода // Избранные труды по языкознанию. – М., 1984. – С. 142
12. Дубичинский В.В. Лексикография русского языка. – Москва: «Флинта», 2008. – 432 с.
13. Есперсен О. Философия грамматики. – М., 1958. – 400 с.
14. Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. Под ред. Б.А. Серебрянникова. – Москва: Наука. 1973. – С. 315 с.
15. Принципы описания языков мира. Под ред. В.А. Серебрянникова. – Москва: Наука, 1976. – 343 с.
16. Расулова М.И. Основы лексической категоризации в лингвистике. – Ташкент: Фан, 2005. – 268 с.
17. Сафаров Ш.С. Тил назарияси ва лингвометодология. – Т.: Bayoz, 2015. – 247 б.
18. Сафаров Ш.С. Когнитив тилшунослик. Жиззах:Сангзор, 2006. 91б.
19. Сафаров Ш.С. Прагмалингвистика. Монография. – Т., 2008. – 318 б.
20. Соссюр Фердинанд де. Курс общей лингвистики. Редакция Ш. Балли и А. Сеше. Екатеринбург: Издательство Уральского университета, 1999. – 432 с.

2-QISM. YEVRONA, AMERIKA VA AVSTRALIYA XALQLARI

ADABIYOTI

Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari adabiyotining milliy o'ziga xosligi, tarixi, bugungi holati va rivojlanish qonuniyatlari. Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari. Adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqidchilik. Qadimgi davr adabiyotshunosligi. Badiiy adabiyot va ijtimoiy hayot. Adabiyotning ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi. Obrazlilik-adabiyotning asosiy xususiyati. Inson – adabiyotning asosiy qahramoni. Obraz. Obrazlilik. Ramz, majoz. Adabiy asarda qahramonlar obrazining ahamiyati; bosh qahramon va ikkinchi darajali qahramonlar. Realistik, romantik, xayoliy-fantastik, majoziy-ramziy obrazlar. Badiiy asarning tarkibiy qismlari. Shakl va mazmun, g'oya, syujet va kompozitsiya, asar tili. Syujet-

qahramonlar o'rtasidagi aloqa, munosabatlarni ifodalovchi, asar mazmunini tashkil etuvchi voqealar tizimi. She'riy, nasriy va drama asarlarida syujet. Sayyor (ko'chma) syujetlar Fabula-asar uchun asos bo'lgan hayotiy voqea-hodisalar. Syujetning tarkibiy qismlari. Badiiy asar tili va ilmiy asar tili. She'r tuzilishi. Adabiy turlar. Epik tur. Roman, qissa, hikoya janrlari. Lirik tur. G'azal, ruboiy, tuyuq kabi she'riy janrlar. Drama turi. Tragediya, drama, komediya janrlari. Xalq og'zaki ijodi janrlari. Ijodiy uslub-hayot hodisalarini tanlash, ularga muayyan dunyoqarash asosida yondashish, talqin qilish yo'li. Ijodiy uslublar: romantizm, realizm, sentimentalizm, naturalizm, syurrealizm, ekzistensializm, simvolizm. Modern adabiyot. Ijodkor uslubi. An'ana va yangilanish. G'arb adabiyotida an'anaviylikning o'ziga xos xususiyatlari.

Zamonaviy adabiyotning metodologik tamoyillari. Adabiyot va siyosat asrlar silsilasida. Bestseller, muallif muvaffaqiyati va adabiy muvaffaqiyat fenomenlari. Zamonaviy adabiy jarayonlar. Badiiy adabiyot va adabiy mukofotlar instituti. Zamonaviy adabiyot va adabiy tanqid. Zamonaviy adabiyot va ta'lim. Zamonaviy adabiyot va postmodernizm. "Postmodernizm" atamasi ma'nosining falsafiy va adabiy assimetriyasi. Adabiyot, modernizm va postmodernizm. Postmodernizm kontseptsiyasining shakllanishi. Adabiyot va feminizm. Feministik adabiyot. Postkoloniallik va postkolonial diskurs. Adabiyot va hokimiyat. Adabiy jarayonni tashkil etish shakllari. Adabiy mukofotlar tizimining ahamiyati. Adabiyot va zamonaviylikning g'oyaviy konteksti. Zamonaviy tarixiy roman. Buyuk Britaniya va Irlandiya zamonaviy adabiyoti. Turli adabiy shakllarning paydo bo'lishi, yozuvchilar ijodida (J.Golsuorsi, J.Shou) badiiy tasvir yangi ko'rinishlari. Dekadans oqimining kuchayishi. Ikkinchi jahon urushidan keyin Buyuk Britaniya adabiyoti. Ijtimoiy va siyosiy, g'oyaviy o'zgarishlar. Jahon kolonial tizimining inqirozga uchrashi. Ingliz adabiyotining yangi rivojlanish tamoyillari.

Amerika adabiyotida millatchilik va irqchilik mavzusi. Sinkler Lyuis – amerikalik birinchi Nobel mukofoti sovrindori. Amerikaga xos turmush tarzi yozuvchi ijodining asosiy mavzusi. Yozuvchilarning ijodiy uslubi. Yozuvchining hayoti va ijodiy yo'li. Ijtimoiy hayotning realistik va tanqidiy ifodalanishi. Amerika dramasi taraqqiyoti.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alimova N.X. Jahon adabiyoti tarixi. Darslik. - Toshkent: MALIK PRINTCO, 2021.
2. Kamilova S.E. Adabiyotshunoslik nazariyasiga kirish. – T., 2019.
3. Гиленсон В. История литературы США. - М.: Академия, 2003.
4. Ивашева В. Литература Великобритании XX века.- М.: Высшая школа, 1984.
5. Луков В. История литературы. Зарубежная литература от истоков до наших дней.- М.: Академия, 2008.
6. Мулярчик А. Современный реалистический роман США. 1945-1980. - М.: Высшая школа, 1988.
7. Основные произведения иностранной художественной литературы: Европа, Америка. Австралия. Литературно-библиографический справочник, 6-ое изд., исправленное и дополненное, Москва ((ТЕРРА) - 1998.
8. Черноземова Е.Н. История английской литературы: Планы. Разработки. Материалы. Задания. - 2-е изд., испр. М, Флинта: Наука, 2000.
9. Шистркин А.Р. Современный английский роман (проблемы войны и мира), Москва, Высшая школа, 1983.
10. Гудзий Н.К. История древнерусской литературы. М. Флинта, 2001.

10.00.04 – “Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti” ixtisosligi bo'yicha mustaqil izlanuvchilikka (PhD) qabul imtihonini o'tkazishda qo'llanishi ko'zda tutilgan nazorat savollari:

1. Til birliklarini fonologik jihatdan tahlil qilishning asosiy tamoyillari.
2. Fonologik belgi tushunchasi.
3. Fonema. Segmentatsiya. Identifikatsiya. Klassifikatsiya.
4. Fonema va uning realizatsiyasi.
5. Pozitsiyaning turlari.
6. Nutqning fonetik bo'linishi.
7. Fonetik jaraenlar.
8. Pozitsion o'zgarishlar. Urg'u. Reduktsiya. Akkomodatsiya. Assimilyatsiya.
Metateza. Proteza. Epenteza.
9. Grammatik shakl. Grammatik ma'no.
10. Grammatik ma'noning gefodapasi usullari. Ablaut, Flektsiya, Agglyutinatsiya, Izilyatsiya, Popisintetizm.
11. So'zning sintektik shakli, so'zning analitik shakli.

12. Ichki flektsiya. Reduplikatsiya.
13. Yordamchi soʻzlar.
14. Gapda soʻz tartibi.
15. Soʻz yasash muammolari Derivatologiya. Affiksatsiya. Prefiksatsiya. suffiksatsiya.
16. Qoʻshma soʻzlar. Abbrevatsiya. Konvertsiya.
17. Soʻz yasashning sermahsul va kammahsul turlari.
18. Sintaktis. Sintaksisning predmeti.
19. Sintagmatik maʼnolar va ularni ifoda qilish usullari.
20. Sintagmatik koʻrsatkichlarning shakliy funktsiyalari.
21. Gapning normativ jihat propozitiv nominatsiya va denotatning strukturasi.
22. Gapning sintagmatik jihatdan tashkillashtirishning ikki vazifasi.
23. Gap nominativ va kommunikativ jihatlarining oʻzaro munosabati.
24. Propozitiv nominatsiyasining oʻziga xos xususiyatlari.
25. Sintaksisda paradigmatic munosabatlar.
26. Gap va hukm.
27. Soʻzlar orasidagi munosabatni ifodalash usullari. Moslashuv. Boshqaruv. Bitishuv.
28. Soʻzlar orasidagi sintaktik aloqaning turlari: predikativ, obʼektiv, atributiv va adverbial aloqa.
29. Gap. Gapning shakliga koʻra turlari.
30. Gapning kommunikatsiya maqsadiga koʻra turlari.
31. Gapning semantikasiga koʻra turlari.
32. Gapning pragmatik klassifikatsiyasi.
33. Kognitiv grammatikada gapni tahlil qilishning asosiy tushuncha va tamoyillari.
34. Maʼno, tushuncha va kontsept terminlari oʻrtasidagi munosabatlar.
35. Belgi va maʼno.
36. Semantika. Lingvistik semantika.
37. Kontseptual semantika.
38. Mantiqiy semantika.
39. Tilning leksiko-semantik tizimi.
40. Tilni semantik tahlil qilishning mantiqiy asoslari.
41. Soʻzning mazmuniy tuzilishi.
42. Polisemiya tushunchasi.
43. Koʻp maʼnolilikning omonimiyaga munosabati.
44. Konversiya. Sinonimiya. Antonimiya. Transpozitsiya.
45. Tillarni tadqiq qilishining kognitiv jihatlari.
46. Kontsept. Pertsept. Kategorizatsiya. Subkategorizatsiya.
47. Kontsept va uning voqelanishi.
48. Kognitiv tilshunoslikning shakllanishi va rivojlanishi.
49. Kognitiv tilshunoslikning asosiy yoʻnalishlari.

50. Kognitiv metafora.
51. Tilning funktsional uslubi tushunchasi.
52. Fonetik ifoda vositalari va stilistik uslublar.
53. Leksik ifoda vositalari va stilistik uslublar. Metafora. Metonimiya. Kinoya. Kalambur. Epitet. Oksimoron. O'xshatish. Perifraz va hkz.
54. Sintaktik ifoda vositalari va stilistik uslublar.
55. Parallel qurilmalar. Xyazma. Klimaks. Antiteza. Litota va boshqalar.
56. Tillarning funktsional stillari.
57. Leksikologiya va leksikografiya.
58. So'z strukturasi. Morfemik tahlilning printsiplari.
59. Derivatsion tahlil printsiplari.
60. Leksikografiyaning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari.
61. Lug'at turlari. Lug'at tizimining asosiy printsiplari.
62. Parimiologiya. Tillar lug'at tarkibidagi maqol, matal va idiomalarning turgan o'рни.
63. Paremiologiyaning etimologik muammolari.
64. Tillar lug'at tarkibidagi etimologik guruhlanish masalalari.
65. Badiiy adabiyot tilining o'ziga xosligi.
66. Diskurs tushunchasi.
67. Diskurs markerlari.
68. So'z strukturasi psixolingvistik jihatlari.
69. Gender nazariyasi.
70. Yosh bolalar nutqi.
71. Yevropa, Amerika va Avstraliya tillari tarixi.
72. Tillar va ular shevalarining sinxron va diaxron tadqiq qilish masalalari. Tilning shakllanishi va rivojlanishi
73. Evropa, Amerika va Avstraliya xalqlari adabiyoti tarixi.
74. Evropa, Amerika va Avstraliya xalqlari adabiyoti taraqqiyotining rivojlanish bosqichlari
75. Tilning kelib chiqishida monogenez va poligenez gipotezalari.
76. Til rivojlanishida tashqi va ichki omillar.
77. Substrakt tushunchasi.
78. Til va yozuv. Alifbolar tarixi. German, roman va slavyan xalqlar foydalangan alifbolar va ularning tarixi.
79. Qiyosiy-tarixiy metod.
80. Mantiqiy metod.
81. Struktural metod.
82. Funktsionalizm metodi.

83. Glossematika.
84. Distributsion analiz metodi.
85. Bevosita tashkil etuvchilarga ajratish metodi.
86. Kognitiv kategorizatsiya metodi va hokazolar.
87. Tillarni tadqiq qilishning nominativ va kognitiv jihatlar.
88. Nominatsiya nazariyasi. Birlamchi nominatsiya. Ikkilamchi nominatsiya.
89. Denotat. Referent. Konotatsiya. Referentsiya.
90. Tillarni tadqiq qilishning lingvokulturologik jihatlar: til, madaniyat.
91. Lingvokulturema, madaniy fon
92. Tillarni tanqid qilinish lingvopragmatik jihatlar.
93. Lingvopragmatikaning shakllanishi va rivojlanishining asosiy bosqichlar: Pragmatika va semantik jarayon.
94. Nutqiy akt nazariyasi.
95. Pragmatik muammuni shakllantiruvchi hodisalar.
96. Muloqotning tamoyil va qoidalari.
97. Sotsiopragmatik tahlil tushunchasi.
98. Deyksis va nutqiy muloqot matni.
99. Diskursning tuzilishi va uning tahlili.
100. Diskurs va matn tushunchalar farqi.

10.00.04 – “Yevropa, amerika va avstraliya xalqlari tili va adabiyoti” ixtisosligi bo‘yicha yozma ishlarni baholash mezon

Mazkur ixtisoslik bo‘yicha kirish sinovi mavjud o‘quv dasturi asosida tuzilgan variantlar savollariga og‘zaki ravishda javob qaytarish tarzida amalga oshiriladi.

Har bir variantda **4 tadan** savol bo‘lib, mazkur savollar nomzodlarning bakalavriat, magistratura va mustaqil izlanuvchilikda o‘qigan fanlari hamda tayyorlagan ilmiy-tadqiqot ishi yuzasidan tuziladi va jami javoblar «0» balddan «100» ballgacha baholanadi.

Variantdagi 1-, 2-, 3-savollar uchun maksimal **15 ball**dan, 4-savol uchun maksimal **55-ball** etib belgilangan.

Variantdagi 1-, 2-, 3-savollarga berilgan javoblarning mazmuniga qarab ularga quyidagicha miqdorda ballar belgilanadi:

1. Mazkur savolning mazmuni to‘liq va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq holda aniq yoritilgan, mazmun-mohiyatini to‘liq ochib berilgan, javoblarda mantiqan yaxlitlikka erishilgan, stilistik xatolarga yo‘l qo‘yilmagan holda umumiy xulosalar chiqarilgan bo‘lsa, **12-15 ballgacha** qo‘yiladi.

2. Mazkur savolning mazmuni yaxshi yoritilgan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalangan, javob to‘g‘ri berilgan, mavzular asoslangan. Ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, **8-11 ballgacha** qo‘yiladi.

3. Mazkur savolning mazmuni o'rtacha yoritilgan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan kamroq foydalanilgan, savollarga javobda masalaning mohiyatiga tushunilgan, ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan bo'lsa **4-7 ballgacha** qo'yiladi.

4. Mazkur savolning mazmuni talab darajasida yoritilmagan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanilmagan, umuman javob berilmagan yoki noto'g'ri javob va ma'lumot berilgan bo'lsa **0-5 ballgacha** qo'yiladi.

№	Umumiy ball	Baho	Mustaqil izlanuvchilikka (PhD) kiruvchining bilim darajasi	Xususiy ball
1.	12-15	A'lo	Berilgan savollar mazmunan aniq yoritilib mazmun-mohiyatini to'liq ochib berilishiga; Javoblar mantiqan yaxlitlikka erishilgan va umumiy xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega.	14-15 13-14 12-13
2.	8-11	Yaxshi	Javoblar to'g'ri berilgan va mavzular asoslangan, ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo'l qo'yilgan; Javoblarda mustaqil izlanuvchilikka kiruvchining mustaqil mushohada yuritish qobiliyati seziladi; Muammoni tahlil qilish qobiliyatiga ega.	10-11 9-10 8-9
3.	4-7	Qoni-qarli	Savollarga javobda masalaning mohiyatiga tushunilgan ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan; Mushohada bayonida fikr tarqoqligi kuzatilgan; Javoblarda mantiqiylik tamoyili buzilgan tasavvurga ega biroq tahlil yetarli emas.	6-7 5-6 4-5
4.	0-4	Qoni-qarsiz	Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega emas; Umuman javob berilmagan; Noto'g'ri javob va ma'lumot berilgan.	0-4

Variantdagi 4-savol yuzasidan berilgan javoblarning mazmuniga qarab ularga quyidagicha miqdorda ballar belgilanadi:

1. Mazkur savolning mazmuni to'liq va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti bilan bog'liq holda aniq yoritilgan, mazmun-mohiyatini to'liq ochib berilgan, javoblarda mantiqan yaxlitlikka erishilgan, stilistik xatolarga yo'l qo'yilmagan holda umumiy xulosalar chiqarilgan bo'lsa, **40-55 ballgacha** qo'yiladi.

2. Mazkur savolning mazmuni yaxshi yoritilgan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalangan, javob to'g'ri berilgan, mavzular asoslangan. Ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, **25-39 ballgacha** qo'yiladi.

3. Mazkur savolning mazmuni o'rtacha yoritilgan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan kamroq foydalanilgan, savollarga javobda masalaning mohiyatiga tushunilgan, ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan bo'lsa **10-24 ballgacha** qo'yiladi.

4. Mazkur savolning mazmuni talab darajasida yoritilmagan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanilmagan, umuman javob berilmagan yoki noto'g'ri javob va ma'lumot berilgan bo'lsa **0-9 ballgacha** qo'yiladi.

№	Umumiy ball	Baho	Mustaqil izlanuvchilikka (PhD) kiruvchining bilim darajasi	Xususiy ball
1.	40-55	A'lo	Berilgan savollar mazmunan aniq yoritilib mazmun-mohiyatini to'liq ochib berilishiga; Javoblar mantiqan yaxlitlikka erishilgan va umumiy xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega.	50-55 44-49 40-44
2.	25-39	Yaxshi	Javoblar to'g'ri berilgan va mavzular asoslangan, ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo'l qo'yilgan; Javoblarda mustaqil izlanuvchilikka kiruvchining mustaqil mushohada yuritish qobiliyati seziladi; Muammoni tahlil qilish qobiliyatiga ega.	35-39 29-34 25-29
3.	10-24	Qoni-qarli	Savollarga javobda masalaning mohiyatiga tushunilgan ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan; Mushohada bayonida fikr tarqoqligi kuzatilgan; Javoblarda mantiqiylik tamoyili buzilgan tasavvurga ega biroq tahlil yetarli emas.	20-24 15-19 10-14
4.	0-9	Qoni-qarsiz	Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega emas; Umuman javob berilmagan; Noto'g'ri javob va ma'lumot berilgan.	0-9

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati

1. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. - Т.: “Ўзбекистон”, 2007.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувидаги маърузаси. Халқ сўзи газетаси. 2017 йил, 4 август.

3. Абдуазизов А.А. Тилшуносликка кириш назарияси. – Т.: Шарқ, 2010. – 262 б.

4. Арнольд И.В. Современные лингвистические теории взаимодействия и среды // Вопросы языкознания. – 1991. – №3. – С. 118-126.

5. Бодуэн де Куртенэ И.А. Языкознание или лингвистика 19 века // Избранные труды по общему языкознанию. В 2-х т. – М., 1963. – Т. 2.
6. Бок Ф.К. Структура общества и структура языка. Новое в лингвистике. Выпуск VII. Социолингвистика. Изд. – М.: Прогресс, 1975. – 1706 с.
7. Ван Дейк Т.А. Контекст и познание. Фреймы знаний и понимание речевых актов // Язык. Познание. Коммуникация. – М.: Прогресс, 1989. – С. 12-41.
8. Гумбольдт В. фон. О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человечества // Избранные труды по языкознанию. – М., 1984. – С. 36-298.
9. Гумбольдт В. Язык и философия культуры. – Москва: «Прогресс», 1985. – 452с.
10. Гумбольдт Вильгельм фон. О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человеческого рода // Избранные труды по языкознанию. – М., 1984. – С. 142-159.
11. Дж.Лакофф. Женщины, огонь и опасность. Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XXIII. Когнитивные аспекты языка. – Москва: «Прогресс», 1988. (George Lakoff. Classifiers as a reflection of mind. – In: “Noun classes and categorization”. Ed.by C. Craig. Amsterdam, 1986).
12. Дубичинский В.В. Лексикография русского языка. – Москва: «Флинта», 2008. – 432 с.
13. Есперсен О. Философия грамматики. – М., 1958. – 400 с.
14. Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. Под ред. Б.А. Серебрянникова. – Москва: Наука. 1973. – С. 315 с.
15. Принципы описания языков мира. Под ред. В.А. Серебрянникова. – Москва: Наука, 1976. – 343 с.
16. Расулова М.И. Основы лексической категоризации в лингвистике. – Ташкент: Фан, 2005. – 268 с.
17. Сафаров Ш.С. Тил назарияси ва лингвометодология. – Т.: Bayoz, 2015. – 247 б.
18. Сафаров Ш.С. Когнитив тилшунослик. Жиззах:Сангзор, 2006. 91б.
19. Сафаров Ш.С. Прагмалингвистика. Монография. – Т., 2008. – 318 б.
20. Соссюр Фердинанд де. Курс общей лингвистики. Редакция Ш. Балли и А. Сеше. Екатеринбург: Издательство Уральского университета, 1999. – 432 с.
21. Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Изд.2-е, испр.и доп. Академический проект. – М., 2001. – 990 с.

Axborot manbalari

1. <http://youreng.narod.ru/teoper.html>
2. <http://www.twirpx.com>
3. <http://www.uz-translations.net>
4. <http://www.booksbooksbooks.ru>
5. <http://www.literature-online>